

“ABUSHQA” LUG‘ATINING TUZILISHI VA LEKSIKOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Abenova Elnura Xursand qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs talabasi

Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek lug‘atchiligi tarixi, xususan, “Abushqa” lug‘ati, uning tuzilishi va leksikografik xususiyatlari o‘rganilgan, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: lug‘at, izohli lug‘at, lug‘at tarixi, Abushqa, ko‘p tilli lu‘at, so‘z va so‘z formalari.

O‘zbek lug‘ati tarixi Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lug‘at faqat so‘zlar va ularning ma’nolarini tavsilib qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlar, geografik joylashuvi kabi keng ma’lumotlar manbai hisoblanadi. Shu bilan birga u dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lug‘atlardandir. Mahmud Zamaxshariy o‘zining “Asos ul-balog‘a”, “Muqaddimat ul-adab” asarlari bilan amaliy, ham nazariy lug‘atning rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan katta qiziqish XV asrdan keyingi davrda bir qancha lug‘atlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi: “Abushqa” izohli lug‘ati, Tole Imoni Hiraviyning “Badoye ul-lug‘at”, Muhammad Rizo Xoksoning “Muntaxab ul-lug‘ot”, Mirzo Mahdiyxonning “Sangloh”, shuningdek, Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma”, Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyiy va turki usmoniy” (“Chig‘atoycha-turkcha lu‘at”), Is‘hoqxon Ibratning “Lug‘ati sitta as-sina” (“Olti tilli lug‘at”) kabi lug‘atlarni ko‘rsatish mumkin. Ushbu lug‘atlardan biri bo‘lgan “Abushqa” lug‘atiga alohida to‘xtalib o‘tish joiz.

“Abushqa” – chig‘atoycha-turkcha izohli lug‘at. Alisher Navoiy asarlaridan foydalanuvchilar uchun XVI asrda Turkiyada tuzilgan. Tuzuvchisi noma’lum hisoblanadi. Lekin uni aniqlash uchun harakatlar yo‘q emas. Ba’zi olimlar „Abushqa“ ning muallifi Aloiy ibn Muhibbiy deyishadi. Bu qarashning xato ekanini H. Fattohov asoslab bergan. Abushqa so‘ziga izoh bilan boshlanganligi uchun, lug‘at shu so‘z bilan nomlana boshlangan. Bu so‘z eski o‘zbek tilida keksa, qari, nuroniy chol ma’nolariga ega bo‘lgan. Lug‘at Alisher Navoiy asarlari leksikasini izohlashga asoslangan, ammo unda Navoiy zamondoshlari asarlaridan ham misollar keltirilgan. “Abushqa“ ni yuzaga keltirishda Hirotlik Tole’ Imoniy tomonidan XV asrda Navoiy asarlariga tuzilgan o‘zbekcha-forscha „Badoye’ ul-lug‘at“dan keng foydalanilgan[1].

Hozirgi kunda „Abushqa“ning Sovet Ittifoqi fondlaridagi ma’lum nusxalari 8

taga yetdi. Ularning 5 tasi Leningrad, 3 tasi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik Institutida saqlanmoqda. Bu lug‘atni birinchi bo‘lib qisqartirilgan holda Vamberi va undan so‘ng V. Velyaminov Zernov esa to‘la tekstini fransuz tilida kirish so‘zi bilan Sankt- Peterburgda 1869-yili nashr qildi. Lug‘atning keng tarqalgan nomi uning ichiga kirgan so‘zlarning birinchisi, ya’ni „Abushqa“ dan olingan. Lug‘atni shu so‘z bilan atash Yevropada boshlangani haqida „Abushqa“ning noshiri V. Velyaminov Zernov xabar beradi, lekin uning o‘zi lug‘atga "al-Lug‘at an-navoiyya va- l-istish- hodot al-chig‘otoiyya", deb ataydi. Chunki nashrga jalb qilingan bir qo‘lyozmaning kotibi uni shu nom bilan atagan[2].

„Abushqa“ o‘z ichiga 2054 so‘z va so‘z formalarini qamrab olgan. Bu so‘zlar boshlanish harflariga ko‘ra 21 bobga ajratilgan. Boblar o‘z ichiga kirgan so‘zlarning birinchi harfi nomi bilan, masalan, „al-harf al-alif“, „al-harf al-bo“ va h. z. nomlangan. Boshlanish harfi p va g bo‘lgan so‘zlar b va k boblariga kiritilgan. „Boyi arabiy“ (b), „boyi ajamiy“ (s), „kofi arabiy“ (k) va „kofi ajamiy“ (g) ishoralari bu harflarning jarangli yoki jarangsiz talaffuzini ko‘rsatadi. „ch“ harfi bilan boshlanuvchi so‘zlar „j“ bobida va ular uch nuqtasi bilan yozilgani uchun fonetik qaydsiz beriladi. 21 bobning har biri o‘z navbatida uch qismga bo‘lingan. Avvalgi qismda birinchi harfi fathali, so‘ng kasrali va bobning oxirida birinchi harfi dammali so‘zlar keladi. Lug‘at haqidagi maqolalarda undagi so‘zlarning alifbe tartibida joylashgani haqida gapiriladi. Aslida „Abushqa“da bu tartib qat’iy saqlangan emas.

Abushqa 1862- yilda vengr sharqshunosi G.Vamberi tomonidan vengr tilida, keyin esa rus sharqshunosi V.V.Velyaminov-Zernov tomonidan 1868-yilda nashr ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov Botirbek “JAVOHIR XAZINALARI” (Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan qo‘lyozma lug‘atlar) Toshkent — 1989 G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti
2. “O‘zbek adabiy tili tarixi ocherklari”, Samarqand, 1969, 170-bet..
3. “Alisher Navoiy: Qomusiy lug‘at”. “Sharq” NMAK, 2016.
4. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”.
5. www.ziyonet.uz
6. www.arxiv.uz